

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar–noyabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yilning yanvar–noyabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **915 971,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda **14,6** %ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning yanvar–noyabr oylarida xizmatlar hajmi **735 641,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda **13,3** %ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
yanvar–noyabr, mlrd so'mda ¹



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **38,2** %, ya'ni **349 947,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda ushbu hududda **17,3** %ga oshgan. Toshkent shahridan tashqari, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (**67 639,3** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **7,4** %ini egalladi), Farg'ona (**61 925,2** mlrd so'm, **6,8** %) va Toshkent viloyatida (**61 798,9** mlrd so'm, **6,7** %) kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12 607,8** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,4** %ini tashkil etdi.

¹ 2023-2025- yillarning yanvar–noyabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar–noyabr

	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi ²	915 971,1	100,0	114,6
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	30 453,8	3,3	113,1
Andijon viloyati	46 870,3	5,1	115,6
Buxoro viloyati	37 215,7	4,1	113,6
Jizzax viloyati	21 407,8	2,3	114,3
Qashqadaryo viloyati	46 682,5	5,1	113,1
Navoiy viloyati	22 571,2	2,5	113,5
Namangan viloyati	47 160,2	5,1	113,6
Samarqand viloyati	67 639,3	7,4	114,9
Surxondaryo viloyati	30 797,3	3,4	114,6
Sirdaryo viloyati	12 607,8	1,4	112,7
Toshkent viloyati	61 798,9	6,7	114,4
Farg'ona viloyati	61 925,2	6,8	113,9
Xorazm viloyati	31 797,5	3,5	114,3
Toshkent shahri	349 947,7	38,2	117,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahridan tashqari respublikaning boshqa hududlarida, xususan, Andijon (**115,6 %**), Samarqand (**114,9 %**), Surxondaryo (**114,6 %**), Toshkent (**114,4 %**), Jizzax va Xorazm viloyatlarida (**114,3 %**) kuzatildi.

Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Sirdaryo viloyatida (**112,7 %**) qayd etildi.

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **24 228,1** ming so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davridagi (**19 840,6** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **4 387,5** ming so'mga, ya'ni **12,4 %**ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, **111 505,1** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **21 982,3** ming so'mga (**14,7 %**) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Navoiy (**20 487,6** ming so'm), Toshkent (**19 753,5** ming so'm) va Buxoro (**17 823,6** ming so'm) viloyatlari egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (**10 370,2** ming so'm) qayd etildi.

² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2025- yil yanvar-noyabr

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	24 228,1	112,4
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 940,8	111,6
Andijon viloyati	13 452,6	113,5
Buxoro viloyati	17 823,6	111,8
Jizzax viloyati	13 823,1	112,1
Qashqadaryo viloyati	12 725,2	110,7
Navoiy viloyati	20 487,6	111,6
Namangan viloyati	14 950,6	111,3
Samarqand viloyati	15 625,4	112,6
Surxondaryo viloyati	10 370,2	112,0
Sirdaryo viloyati	13 459,8	110,7
Toshkent viloyati	19 753,5	112,4
Farg'ona viloyati	14 834,2	111,6
Xorazm viloyati	15 543,6	112,2
Toshkent shahri	111 505,1	114,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Eng yuqori o'sish sur'ati Toshkent shahrida (**114,7 %**), Andijon (**113,5 %**), Samarqand (**112,6 %**), Toshkent (**112,4 %**), Xorazm (**112,2 %**), Jizzax (**112,1 %**), shuningdek, Surxondaryo (**112,0 %**) viloyatlarida qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **507 877,4** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **55,4 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **13,1 %**ga o'sish kuzatildi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona (**74,5 %**), Namangan (**74,3 %**), Qashqadaryo (**74,0 %**), Surxondaryo (**73,8 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**73,4 %**) kuzatilmoqda. Ushbu hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**39,9 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **139 696,1** mlrd so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **8 306,2** mlrd so'mni, Navoiy viloyatida **12 655,5** mlrd so'mni, Jizzax viloyatida esa **15 436,1** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar–noyabr

	Hajmi, mlrd so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	507 877,4	55,4	113,1
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22 361,8	73,4	115,4
Andijon viloyati	33 909,0	72,3	111,5
Buxoro viloyati	26 011,3	69,9	115,8
Jizzax viloyati	15 436,1	72,1	113,0
Qashqadaryo viloyati	34 522,8	74,0	111,5
Navoiy viloyati	12 655,5	56,1	112,4
Namangan viloyati	35 040,6	74,3	112,0
Samarqand viloyati	43 155,2	63,8	111,6
Surxondaryo viloyati	22 727,5	73,8	112,3
Sirdaryo viloyati	8 306,2	65,9	112,6
Toshkent viloyati	44 941,5	72,7	113,2
Farg'ona viloyati	46 132,1	74,5	112,8
Xorazm viloyati	22 981,7	72,3	114,4
Toshkent shahri	139 696,1	39,9	113,9

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**23,7** %ga; umumiy o'sishga **3,9** foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (**12,9** %ga; **2,4** f.b.), savdo xizmatlari (**13,3** %ga; **2,4** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**9,3** %ga; **1,9** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**22,6** %ga; **1,6** f.b.), boshqa xizmatlar (**13,1** %ga; **0,7** f.b.), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**15,3** %ga; **0,3** f.b.), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**11,7** %ga; **0,3** f.b.) va ta'lim sohasidagi xizmatlarning (**8,8** %ga; **0,3** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**19,0** %ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**15,2** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**12,8** %ga) va shaxsiy xizmatlar (**12,0** %ga) o'sib, **0,8** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **20,5** %, transport xizmatlari **18,4** %, savdo xizmatlari **17,3** %, moliyaviy xizmatlar **16,8** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,7** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,7** % ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
yanvar–noyabr

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	735 641,9	915 971,1	114,6
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	50 424,6	70 582,1	122,6
moliyaviy xizmatlar	122 379,2	153 470,9	123,7
transport xizmatlari	136 117,8	168 422,0	112,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	66 485,1	84 485,2	111,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	153 778,8	187 977,4	109,3
savdo xizmatlari	132 577,1	158 876,9	113,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	18 817,1	23 205,1	111,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	27 934,7	34 172,3	108,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14 476,2	18 246,1	115,3
ijara xizmatlari	8 903,4	11 564,3	119,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	10 643,0	13 161,4	112,8
shaxsiy xizmatlar	14 090,1	18 074,7	112,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	9 303,5	11 713,2	115,2
boshqa xizmatlar	36 196,4	46 504,7	113,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2024- yilning yanvar–noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **34 198,6** mlrd so'mga oshib, **187 977,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **95,5** % darajasida qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi tarkibi

2025- yil yanvar–noyabr


- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari
- Yashash xizmatlari



2025- yilning yanvar–noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **168 422,0** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **50,2** %.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi
2025- yil yanvar-noyabr



2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **26 299,8** mlrd so'mga oshib, **158 876,9** mlrd so'mni tashkil etdi.


Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **52,8** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **31,8** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **15,4** %ni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **31 091,7** mlrd so'mga oshib, **153 470,9** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **23,7** %ga o'sdi.

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **88,1** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **7,1** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **4,8** %ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **70 582,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari (**42,2** %) egalladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi
2025- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda



Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klaster paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa autsorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **34 172,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **46,8** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**23 205,1** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **95,8** % darajasida qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **18 246,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **53,2** %ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **31,1** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa – **15,7** %.

Ijara xizmatlari umumiy hajmidagi (**11 564,3** mlrd so'm) eng katta ulush yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlariga to'g'ri kelib, **49,0** %ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyeksi bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1281)

